

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH PROKURATURASI
HUZURIDAGI IQTISODIY JINOYATLARGA QARSHI
KURASHISH DEPARTAMENT

“RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IQTISODIY
XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI TO‘PLAMI

FUQAROLAR PLASTIK KARTALARI KIBRXAVFSIZLIGINI TA’MINLASH
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH” (MY CARD MOBIL ILOVASI)

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN'IY INTELLEKT

Ilmiy elektron jurnal

*Elektron nashr. 329 sahifa.
2026-yil, fevral.*

Bosh muharrir:

Mo'minov Baxodir Boltaevich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Nasimov Rashid

Muharrir:

Ulug'ova Baxtiniso Norpulatovna

Musahhih:

Ulug'ova Baxtiniso Norpulatovna

Dizayner:

Egamberdiyev Elyor

Tahrir hay'ati:

- | | |
|--|---------------------------------------|
| 1. Mo'minov Bahodir (hay'at raisi) | 12. Xamza Eshankulov (O'zbekiston) |
| 2. Rashid Nasimov (hay'at raisi o'rinbosari) | 13. Iles Xujayarov (O'zbekiston) |
| 3. Marat Raxmatullayev (O'zbekiston) | 14. Mexriddin Raximov (O'zbekiston) |
| 4. Muxammadjon Musaev (O'zbekiston) | 15. Murodjon Sultanov (O'zbekiston) |
| 5. O'tkir Xamdamov (O'zbekiston) | 16. Bekmurodov Ulug'bek (O'zbekiston) |
| 6. Ali Xikmet (AQSh) | 17. Alisher Qobilov (O'zbekiston) |
| 7. Dmitriy Rodionov (Rossiya) | 18. Iroda Abdullaeva (O'zbekiston) |
| 8. Dilnoza Muhammadieva (O'zbekiston) | 19. Burova Ekaterina (Rossiya) |
| 9. Gayrat Ishanxodjaev (O'zbekiston) | 20. Xodiyeva Gulmira (O'zbekiston) |
| 10. Nodir Rahimov (O'zbekiston) | 21. Sultonboyeva Munira (O'zbekiston) |
| 11. Akmal Abdusalomov (J. Koreya) | |

Jamoatchilik kengashi:

- | | |
|------------------------------------|--------------------------------------|
| 1. Gul Tokdemir (Turkiya) | 8. Olga Dzyabenko (Ispaniya) |
| 2. Umid Axmedov (Daniya) | 9. Stefani Estlund (Lyuksemburg) |
| 3. Marko Porta (Italiya) | 10. Sanjar Iskandarov (O'zbekiston) |
| 4. Xristo Beloov (Bolgariya) | 11. Aydos Sarsembayev (Qirg'iziston) |
| 5. Muxriddin Muhitdinov (J.Koreya) | 12. Svetomir Vasilev (Bolgariya) |
| 6. Boshtyan Brumen (Sloveniya) | 13. Pap Solt (Vengriya) |
| 7. Bibigul Koshoeva (Qirg'iziston) | |



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MOLIYA SOHASINING INNOVATSION RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI	7
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, Mamadyarovna Go'zal Norboyevna	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA VOSITALARI ORQALI CHEKKA HUDUDLARDA IQTISODIY FAOLLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	13
Eshov Mansur Po'latovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH PROKURATURA HUZURIDAGI IQTISODIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISH DEPARTAMENTI FAOLIYATI VA UNING MAMLAKAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI.....	20
Babadjanov Atxam Axmadjanovich	
ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ.....	26
Ахмедов Самандар Сайфуллоевич	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA BOJXONA XIZMATINING FISKAL FAOLIYATIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI. 32	
Farxodov Farrux Furqatovich, Toshpo'lotova E'zoza Latifjonovna	
SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT ULUSHINI QISQARTIRISH YO'LLARI	38
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA BOJXONA TO'LOVLARINI UNDIRISHNI RAQAMLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI	43
Pardayev To'liqin Nasirovich	
QARZ MUNOSABATLARINI RAQAMLASHTIRISH: IQTISODIY VA HUQUQIY MUNOSABATLARDAGI AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI	47
Quramboev Jamshid Rashid o'g'li	
EVALUATING THE EFFICIENCY OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN USING A MULTIPLE LINEAR REGRESSION MODEL.....	50
Rakhimberdiev Kuvonchbek Bakhtiyorovich	
TASHQI SAVDO OPERATSIYALARIDA DEBITOR QARZDORLIKLARNI BOSHQARISHNING RAQAMLI MODEL VA RISK- MONITORING TIZIMI	56
Tashmuxeimedov Dilmurod Mirabzalovich	
WAYS TO REDUCE THE RISK OF DIGITAL ATTACKS IN BANKING AND GOVERNMENT FINANCIAL SYSTEMS.....	62
M.N. Umarova	
MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH KICHIK BIZNES IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASH OMILI SIFATIDA.....	69
Abduxakimov Eldor Djaloliddinovich	
TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY MASALALARI.....	76
Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich	
MAHALLIY GILAM ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH VA IQTISODIY XAVFSIZLIKDA TAHDIDLARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI.....	81
Arziyeva Sevinch Shomurot qizi	
TASHQI SAVDODA XATARLARNI KAMAYTIRISHDA SAVDONI MOLIYALASHTIRISH VOSITALARIDAN FOYDALANISH.....	85
Babadjanov Shuhrat Atxamovich	
KORXONALAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	92
Jamoliddinov Jobirbek Bohodir o'g'li	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING METODOLOGIK JIHLATLARI.....	97
Karimov Alibek Valiyevich	
KICHIK BIZNES KORXONALARIDA ISHLAB CHIQUVCHI OMILLARI NOMUTANOSIBLIGINING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH VA UNI BARTARAF ETISH MEXANIZMI.....	102
Kaypnazarova Gulshad Xojamuratovna	
КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В МАЛОМ БИЗНЕСЕ С ПОМОЩЬЮ SWOT-АНАЛИЗА.....	108
Набиев Бехзод Шавкатович	
TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH HAMDA QO'LLAB-QUVVATLASHNING ILMIY-AMALIY JIHLATLARI.....	114
Tashmuxeimedova Yayra Atxamovna, Teshayev Sayimbek	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	120
Toxirova Mushtariybegim Yashnarjon qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH STRATEGIYASI	124



Tursunov Bobir Ortikmirzayevich, Umarova Nargiza Xoldarovna

РАЗРАБОТКА ЭФФЕКТИВНОЙ СТРАТЕГИИ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ТЕКСТИЛЬНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ..... 134

Турсунов Бобир Ортикмирзаевич

KIMYO SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH
SAMARADORLIGINI OSHIRISH 141

Tursunxo’jayev Sardor Jamoliddin o’g’li

MAMLUKAT QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARI MOLIVAVIY XAVFSIZLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNING
EKONOMETRIK TAHLILI 147

Umarova Nargiza Xoldarovna

YENGIL SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI..... 154

Sadriddinova Nigora

RAQAMLI MOLIVAVIY INKLYUZIYA VOSITALARI ORQALI TUMANLAR O’RTASIDAGI IJTIMOYIY FARQNI KAMAYTIRISH MODELI....
162

Xakimov Ziyodulla Ahmadovich, Tursunov Bobir Ortikmirzayevich, Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o’g’li

O’ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT KO’LAMINI QISQARTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O’RNI 170

Jaloliddinov Anvar Jaloliddin o’g’li

YASHIRIN IQTISODIYOT KO’LAMINI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH: O’ZBEKISTON
BOJXONA ORGANLARI TAJRIBASI 176

Makamov Z.X., Soatov S.S.

RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI XALQARO SAVDODA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH MUAMMOLARI VA ULARNI
BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI..... 182

Muxtorov Boburmizro Bahodir o’g’li

RAQAMLI TO’LOV TIZIMLARI VA ELEKTRON HISOB-KITOBLARNING YASHIRIN IQTISODIYOT ULUSHINI KAMAYTIRISH
MEXANIZMLARI..... 188

Norsafarov Bunyodshoh Muhiddinzoda

PROSPECTIVE INDICATORS FOR MANAGING THE LEGALIZATION OF THE INFORMAL SECTOR AND INFORMAL EMPLOYMENT
IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN 192

Qoraboyev Nuriddin Pardaboy o’g’li

YASHIRIN IQTISODIYOT KO’LAMINI QISQARTIRISHDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AHOLIGA KO’RSATILAYOTGAN BANK
XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING RAQAMLI YO’NALISHLARI..... 196

To’patillayeva Gulnoza Sirojiddin qizi

BIG DATA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA SOLIQ RISKLARINI ANIQLASH VA YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH
IMKONIYATLARI..... 201

Yakubova Nargiza Tursunbayevna, Maxmudov Jasurbek Ulug’bek o’g’li

SOLIQLAR YOKI BOSHQA MAJBURIY TO’LOVLARNI TO’LASHDAN BO’YIN TOVLASH JINOYATI VA UNING MAMLUKAT
IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA’SIRI..... 208

Axmedov Zafar Bozorboyevich

DAVLATLARNING IQTISODIY JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDAGI XALQARO HAMKORLIGI: XALQARO TASHKILOTLAR,
FATF STANDARTLARI VA AMALIY MEXANIZMLAR..... 213

Tashmuxamedova Yayra Atxamovna

IQTISODIY JINOYATLARNI ANIQLASH VA ULARGA QARSHI KURASHISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYALARNING O’RNI ..221

Faxridinov Zafarjon Faxridin o’g’li, Tursunov Bobir Ortikmirzayevich, Tashmuxamedova Yayra Atxamovna

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA AHOLINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI 226

Azlarova Mushtariybegim Abror qizi

RAQAMLI TO’LOV TIZIMLARI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA DAVLAT INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARINING ROLI..... 232

Kurbonbekova Mohichehra Turobjonovna, Azlarova Aziza Axrorovna

MOLIVAVIY SAVODXONLIK TUSHUNCHASI VA UNING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O’RNI..... 238

Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi, Sattorova Nasiba G’anijon qizi

AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH BO’YICHA XORIJIY ILMIY YONDASHUVLAR
TAHLILI 244

Kurbonbekova Mohichehra Turobjonovna, Muzaffarova Dilbar Mamlatif qizi

MAHALLIY OLIMLAR TADQIQOTLARIDA MOLIVAVIY SAVODXONLIK VA BANK XIZMATLARI MASALALARI 251

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi

BANK PLASTIK KARTALARI VA SHAXSIY HISOB RAQAMLARINI NAZORAT QILISH TIZIMINING
NAZARIY ASOSLARI..... 258

Azlarova Aziza Axrorovna, Sattorova Nasiba G’anijon qizi

AUTENTIFIKATSIYA SXEMALARINI TAHLIL QILISH VA ULARNING AFZALLIKLARI HAMDA KAMCHILIKLARI..... 265



Ahmedova Nilufar Shukratovna, Kurbonbekova Mohichehra Turobjonovna PLASTIK KARTALAR XAVFSIZLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI MAVJUD KIBRXAVFSIZLIK TAHDIDLARI TAHLILI	272
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLARDA PLASTIK KARTALAR VA RAQAMLI TO'LOVLAR XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH TAJRIBALARI: FINTECH PLATFORMALARINING QIYOSIY TAHLILI VA MYCARD MOBIL ILOVASINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA TAVSIYALAR	278
Kurbonbekova Mohichehra Turobjonovna, Mashrapova Sabina Turobjonovna AHOLI MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA IJTIMOY TARMOQLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA INDIKATORLARI	285
Eshpulatova Muazzam Barnoyevna AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI	292
Eshpulatova Muazzam Barnoyevna МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ ЦИФРОВОЙ ЗРЕЛОСТИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ	298
Назарова Гулчебра Нурмухамбетовна ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ЦИФРОВОЙ ЗРЕЛОСТИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ НА КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА.....	305
Назарова Гулчебра Нурмухамбетовна MOLIYAVIY INKLIZIYADA KIBRXAVFSIZLIKNING O'RNI VA UNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: BANK MOBIL ILOVALARI MISOLIDA.....	313
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi MOLIYAVIY XIZMATLARDAN FOYDALANISHDA SOLIQ SAVODXONLIGINING O'RNI	318
Irgashev Anvar Farxodovich RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ALTERNATIV KREDIT SKORING TIZIMLARINING AHAMIYATI	322
Lazizbek Ravshanov Baxtiyor o'g'li THE ECONOMIC ESSENCE OF LABOR AND ITS INTERPRETATION IN THE CONTEXT OF INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS	325
Nomozov Ilhomjon Ziyadullah ugli O'ZBEKISTON KORXONALARIDA BIZNES JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	328
Qarshiyeva Moxinur Olim qizi THE ROLE OF RITUALS IN ATTRACTING TOURISTS.....	331
Freshta Qayoumi O'ZBEKISTONDA REKREATIONS TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	333
Po'latova Mavluda Sanjar qizi O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TARMOQLAR KESIMIDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH	336
Otajonova Charosxon Polvonquli qizi MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIDAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AMALIYOTIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA RIVOJLANISH MUAMMOLARI	340
Valijonov X.A. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA KICHIK SANOAT ZONALARIDAGI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGI MASALALARI	344
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich KIMYO SANOATI KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNI OSHIRISHNING MAKRO DARAJADAGI TAHLILI	347
Suyarov Shahzod Salim o'g'li INVESTITSIYON MUHITNI SAMARALI BOSHQARISHDA INNOVATSION OMIL TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	350
To'rayev Jasurali To'rayevich SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI: DH-ROI-EM MODEL ASOSIDA	353
Omonov Olim Murodullaevich	



РИСКИ ЛИКВИДНОСТИ ПРИ ОБЕСПЕЧЕНИИ ТРАНСГРАНИЧНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ.....	355
Садыков Азиз Миршарапович	
THE ROLE OF TECHNOLOGY IN RESTAURANTS AND ENHANCING OFFERINGS FOR TOURISTS.....	358
Fresha Qayoumi	
INVESTITSIYA FAOLLIQI MINTAQAVIY IQTISODIY XAVFSIZLIK OMILI SIFATIDA	360
Islamov Anvar Ashirqulovi	
ASSESSING DIGITAL MATURITY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS: AN INTEGRATED FRAMEWORK APPROACH	363
Berdiyev Temurbek Makhmudullo ugli	
SANOAT TARMOG'INI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI	363
Ne'matov Shoxruxbek Ma'murjon o'g'li	



SANOAT TARMOG'INI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Ne'matov Shoxruxbek Ma'murjon o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
"Yashil iqtisodiyot" kafedrası mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: sh.nematov@tsue.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada sanoatni iqtisodiy rivojlantirishning mohiyati, tarkibiy qismlari va nazariy asoslari chuqur o'rganilgan. Sanoatni iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilingan hamda mualliflik ta'rifi keltirilgan. Shuningdek, sanoatni iqtisodiy rivojlantirishdan samarali foydalanish yo'llari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: sanoat, sanoat iqtisodiyoti, iqtisodiy rivojlanish, investitsiya, infratuzilma, raqobatbardoshlik.

Abstract. This article examines the essence, structural components, and theoretical foundations of industrial economic development. The scientific views of foreign and domestic scholars on the economic development of industry are analyzed, and an authorial definition is proposed. In addition, practical approaches for ensuring the effective utilization of industrial development opportunities are presented.

Keywords: industry, industrial economics, economic development, investment, infrastructure, competitiveness.

Аннотация. В данной статье подробно исследованы сущность, структурные элементы и теоретические основы экономического развития промышленности. Проанализированы научные взгляды зарубежных и отечественных ученых на вопросы экономического развития промышленности, а также предложено авторское определение данного понятия. Кроме того, представлены направления эффективного использования возможностей промышленного развития.

Ключевые слова: промышленность, экономика промышленности, экономическое развитие, инвестиции, инфраструктура, конкурентоспособность.

KIRISH

Globallashuv jarayonida o'sish nuqtalari va maxsus iqtisodiy zonalar ko'rinishidagi yangi mintaqaviy markazlarning shakllanishi investitsiyalar, yuqori malakali ishchi kuchi va istiqbolli infratuzilma loyihalarini jalb qilish borasidagi raqobatning kuchayishiga olib kelmoqda. Yirik mintaqaviy markazlar hissasiga jahon YAIMining 75 foizi, eksportining 58 foizi va investitsiyalarning 76 foizi to'g'ri kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida, boshqa mintaqalar va mamlakatlarni ham raqobatbardoshligini oshirishga, xususan, ichki iqtisodiy salohiyat hamda qiyosiy ustunliklardan samarali foydalanishga undamoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda ham mintaqaviy iqtisodiy siyosatni takomillashtirish hamda hududlarning boy iqtisodiy salohiyatidan samarali va oqilona foydalanish masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunda hududiy sanoatni iqtisodiy rivojlantirish, birinchi navbatda, tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun qishloq xo'jaligi xomashyosi va mineral resurslarni sanoat yo'li bilan chuqur qayta ishlash, zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni jadal rivojlantirish, aholining bandligi va daromadlarini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Iqtisodiy masalalarni ilmiy o'rganish va ularning samarali yechimlarini ishlab chiqish doimo iqtisodchi olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Jumladan, mazkur masalaning nazariy va amaliy jihatlariga, hududiy raqobatbardoshlikni oshirish yo'nalishlariga xorijlik iqtisodchi olimlardan B. Robert [1], M. Fujita [2], M. Enright [3], B. Shaun [4] salmoqli hissa qo'shgan.

Y. A. Gadjiyevning fikricha [5], iqtisodiy rivojlanishning nazariy masalalari, hududiy iqtisodiy o'sish va rivojlanishni boshqarish, mintaqaviy iqtisodiyot rivojlanishini tashxislash, hududiy iqtisodiy salohiyat va raqobatbardoshlikni oshirish masalalari alohida ilmiy ahamiyatga ega.



Boshqa mamlakatlar singari respublikamizda ham hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish va uni boshqarish, hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish masalalari mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining ilmiy qiziqish predmeti bo'lib kelmoqda.

Jumladan, sanoat majmualarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini modellashtirish, mintaqalarni kompleks rivojlantirish, ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil etish va boshqarish, O'zbekiston mintaqalari raqobatbardoshligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish kabi masalalar A. M. Sodiqovning [6] ilmiy izlanishlarida keng yoritilgan. Mazkur tadqiqotda nazariy tahlil, jadval usuli, qiyosiy tahlil, ekspert baholash, analitik taqqoslash, mantiqiy fikrlash va mushohada usullaridan keng foydalanilgan. Shuningdek, mazkur mavzuga oid xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari tahlil qilinib, ularning ilmiy qarashlari chuqur o'rganilgan.

“Salohiyat” tushunchasi lotin tilidagi “potentia” so'zidan olingan bo'lib, “kuch”, “imkoniyat” degan ma'nolarni anglatadi. Biroq mazkur tushunchaning yagona, umumqabul qilingan ta'rifi mavjud emas. “Salohiyat” tushunchasi mavjud va istiqboldagi imkoniyatlar majmuasini ifodalaydi hamda turli sohalarga nisbatan turlicha qo'llaniladi. Masalan, iqtisodiy salohiyat, tabiiy xomashyo salohiyati, innovatsion salohiyat, investitsion salohiyat, eksport salohiyati, hududiy salohiyat, sanoatni iqtisodiy rivojlantirish salohiyati, ishlab chiqarish salohiyati va boshqalar.

“Iqtisodiy salohiyat” jamiyatning moddiy va inson resurslari bilan ta'minlanganlik darajasini, ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini anglatadi hamda ushbu imkoniyatlar miqyosi bilan baholanadi. “Iqtisodiy salohiyat” tushunchasiga mazmunan yaqin tushunchalardan biri “hududiy salohiyat” hisoblanadi.

Sanoat salohiyatiga alohida e'tibor qaratiladi. Uning asosiy maqsadi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda mehnat unumdorligini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnika va texnologik yangilash, hududning ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish hamda hudud sanoatining assortiment bazasini diversifikatsiyalash esa uning muhim vazifalari sifatida e'tirof etiladi.

Mazkur tadqiqotda sanoatni iqtisodiy rivojlantirish salohiyatini oshirish omillari sifatida quyidagilar belgilanadi:

- sanoatni iqtisodiy rivojlantirish darajasini baholash, sanoat majmuasining qiyosiy ustunliklarini aniqlash hamda ishlab chiqarish quvvatlarining texnologik darajasini baholash;
- sanoat ishlab chiqarishining diversifikatsiyalanganlik darajasi, yuqori qo'shilgan qiymatga ega tarmoqlarning ulushi va qayta ishlovchi sanoat ishlab chiqarishining ulushi;
- ishlab chiqarishning innovatsion va imitatsion qobiliyatini baholash, xomashyo resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi, yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlanganlik, marketing holati va boshqa omillar.

A. P. Svinsova o'z tadqiqotlarida sanoatni iqtisodiy rivojlantirish salohiyatini quyidagicha tasniflaydi [7]:

Fond salohiyati:

a) texnika va texnologik salohiyat;

b) ilmiy-texnika salohiyat, ya'ni innovatsion va axborot salohiyati;

v) investitsion salohiyat, ya'ni korxonalarining ichki xususiy mablag'laridan foydalanish salohiyati hamda investitsion jozibadorlik salohiyati.

Kadrlar salohiyati:

a) ijtimoiy salohiyat;

b) kasbiy o'sish salohiyati.

Mahsulot salohiyati:

a) sotilgan mahsulot salohiyati;

b) mahsulot sifati salohiyati;

v) korxonani diversifikatsiyalash salohiyati, ya'ni yangi mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlari.

Ishlab chiqarish salohiyati — iqtisodiy tizimning, ya'ni mamlakat, hudud, kompaniya yoki korxonaning mavjud ishlab chiqarish omillari doirasida erishishi mumkin bo'lgan maksimal ishlab chiqarish hajmi va imkoniyatlar darajasi bo'lib, u tizimning texnologik taraqqiyot darajasini ham ifoda etadi.

Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, ishlab chiqarish salohiyati quyidagi kompleks omillar yordamida aniqlanadi:

- resurslarning mavjudligi;
- resurslarning miqdori va sifati hamda ular o'rtasidagi mutanosiblik;
- tabiiy sharoitlar, xo'jalik mexanizmi, ishlab chiqarish munosabatlarining tavsifi hamda ishlab chiqarishni tashkil etish shakliga bog'liq holda resurslardan foydalanish darajasi.

Ishlab chiqarish salohiyatini yanada aniqroq tushunish uchun uni tashkil etuvchi unsurlar nimalardan iborat ekanligini aniqlab olish maqsadga muvofiqdir. Bu esa mazkur tushunchaning murakkab iqtisodiy mazmunga ega ekanligini belgilab beradi. Quyida ishlab chiqarish salohiyatining tarkibiy tuzilishi o'z ifodasini topadi.



Nazariy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "ishlab chiqarish salohiyati" va "sanoatni iqtisodiy rivojlantirish" tushunchalari bir-biriga yaqin mazmun kasb etadi. Sanoatni iqtisodiy rivojlantirishning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- fond salohiyati;
- kadrlar salohiyati;
- mahsulot salohiyati;
- tashkiliy salohiyat.

Sanoat korxonalarda ishlab chiqarish salohiyatining tuzilishini tahlil qiladigan bo'lsak, mazkur tuzilishning asosini ishlab chiqarish omillari tashkil etishi ma'lum bo'ladi. Demak, ishlab chiqarish salohiyatining o'zagini ishlab chiqarish jarayoni tashkil etadi. O'z navbatida, salohiyat sanoat tarmog'i yoki sanoat korxonalarining ishlab chiqarish omillari bilan qay darajada ta'minlanganligini ham ifoda etadi.

Ishlab chiqarish salohiyati mamlakat, hudud va tarmoq darajasida qaranganda bir-biridan farqlanadi. Salohiyat tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish maqsadida foydalanish mumkin bo'lgan barcha manbalar, imkoniyatlar, vositalar va zaxiralarni anglatadi. Makrodarajada yalpi iqtisodiy salohiyat deganda, ichki va tashqi bozorlar talabiga muvofiq milliy iqtisodiyotning tovar va xizmatlar ishlab chiqarish bo'yicha maksimal mumkin bo'lgan qobiliyati tushuniladi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish va iste'molning texnik darajasi, hajmi va tarkibi, milliy iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning sifati, shuningdek, hududda va chet ellarda jamg'arilgan qiymatlar, mehnat hamda tabiiy resurslar hududning yalpi iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish darajasini belgilaydi.

"Sanoat ishlab chiqarish salohiyati" iqtisodiy kategoriya sifatida murakkab tushuncha bo'lganligi bois, uni tashkil etuvchi unsurlar ham ko'plab tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi. Jumladan, A. O. Larionov tadqiqotlarida sanoatni iqtisodiy rivojlantirish quyidagi jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi.

Demak, sanoatda ishlab chiqarish salohiyati quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- mavjud ishlab chiqarish resurslari, ya'ni asosiy va aylanma vositalar, ishchi kuchi, texnika hamda moliyaviy resurslar;
- har bir turdagi foydalanilayotgan resurslarning sifati va miqdori hamda ular o'rtasidagi mutanosiblikning saqlanishi;
- ishlab chiqarishda foydalanilayotgan resurslar darajasi, ishlab chiqarish munosabatlarining tavsifi, ixtisoslashuv darajasi, ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi va boshqa omillar.

Har bir mamlakat uchun ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish masalasi doimo dolzarb vazifa hisoblanadi. Ishlab chiqarish salohiyatidan maqsadga muvofiq foydalanish uchun resurslar iqtisodiy jarayonga nafaqat to'liq jalb qilinishi, balki ulardan yuqori samaradorlik bilan foydalanilishi ham zarur. Shuningdek, resurslarning o'sib borayotgan hajmidan oqilona foydalanish va ularni zarur mahsulot hajmini ta'minlaydigan tarzda taqsimlash muhim ahamiyatga ega.

Sanoat va uning tarmoqlarida ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

- mashinasozlik tarmog'ida joriy etilayotgan texnologiyalarning to'liq quvvat bilan ishlashini ta'minlash;
- tarmoqqa yuqori malakali kadrlarni jalb etish va ularning malakasini muntazam oshirib borish;
- asosiy kapitalga kiritilgan har bir so'mlik investitsiyaga to'g'ri keladigan mahsulot qaytimini oshirish maqsadida investitsiya samaradorligi yuqori bo'lgan, yuqori texnologiyalar asosida ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga investitsiyalar kiritishda nisbiy ustunlik va imtiyozlar berish;
- tarmoqda xorijiy investitsiyalar hisobiga tashkil etilayotgan yangi obyektlarning qurilish muddatini qisqartirish hamda investitsiya loyihalarini ishlab chiqish jarayonlarini samarali tashkil etish;
- sanoat ishlab chiqarishining asosiy fondlarini muntazam yangilab borish hamda texnika va texnologiyalarni modernizatsiya qilish darajasini oshirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sanoat va uning tarmoqlarida ishlab chiqarish salohiyatini oshirishning muhim omillaridan biri tarmoqni samarali investitsiyalash hisoblanadi. Sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanishda jalb etiladigan investitsiyalar bilan bir qatorda ushbu tarmoqlarga xizmat ko'rsatuvchi mavjud infratuzilmaning holati ham muhim ahamiyatga ega.

Sanoat infratuzilmasining tarkibiy qismi hisoblangan texnik xizmat ko'rsatish tuzilmasi, ya'ni yordamchi ishlab chiqarish asosiy ishlab chiqarishning uzluksiz va samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Mazkur tizimga ta'mirlash, asbobsozlik, energetika, transport, omborxona va boshqa xo'jaliklar kiradi. Ushbu infratuzilma elementlarining samarali ishlashi sanoatda ishlab chiqarish salohiyatining oshishiga xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Roberts B., Murray A. National and Regional Corporate Spatial Structure // The Annals of Regional Science. – 2002. – Vol. 36. – P. 245–262.
2. Fujita M., Krugman P., Venables A.J. The Spatial Economy: Cities, Regions and International Trade. – Cambridge, MA: The MIT Press, 2001. – 384 p.
3. Enright M. The Geographical Scope of Competitive Advantage // Stuck in the Region? Changing Scales for Regional Identity / Ed. by E. Dirven, J. Groenewegen, S. van Hoof. – Utrecht, 1993. – P. 87–102.
4. Shaun B., Glenn H. Microregionalism and World Order: Concepts, Approaches and Implications. – London: Palgrave Macmillan, 2003. – 272 p.
5. Гаджиев Ю.А. Зарубежные новые теории регионального роста и развития // Корпоративное управление и инновационное развитие Севера. Вестник Сыктывкарского государственного университета. – 2008. – № 2. – С. 15–27.
6. Садыков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика: монография. – Ташкент: IQTISOD-MOLIYA, 2005. – 280 с.
7. Свинцова А.П. Промышленный потенциал: понятие, критерии, структура // Экономический вестник УГНТУ / под ред. Л.Н. Родионовой. – Уфа: УГНТУ, 2001. – С. 103–106.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN'IY INTELLEKT

Ilmiy elektron jurnal

(MAXSUS SON)

Bosh muharriri: Mo'minov Baxodir Boltaevich

Bosh muharrir o'rinbosari: Nasimov Rashid

Muharrir: Ulug'ova Baxtiniso Norpulatovna

Musahhih: Ulug'ova Baxtiniso Norpulatovna

Dizayner: Egamberdiev Elyor

“Raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt” jurnali 23.10.2020-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№1124 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

